

## **JAHON TILSHUNOSLIGIDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR**

**Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna**

Termiz davlat universiteti Fakultetlararo chet tillari kafedrası

katta o'qituvchisi, f.f.f.d.

### **ANNOTATSIYA**

*Barqaror birikmalar turli tillarda turlicha talqin etiladi. O'zbek tilshunosligida ular maqol, aforizmlar, iboralar, idiomalar, ekzotizmlar va boshqa bir qator birliklarni qamrab oluvchi leksik birliklar sifatida tushunilsa, ingliz tilshunosligida esa ularga juda keng sathga ega bo'lgan so'zlar birikmasi sifatida qaraladi.*

***Kalit so'zlar:** barqaror birikmalar, din, frazeologizm, idioma, kollokatsiya, binomiallar, trinomiallar, polinomiallar.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Стабильные соединения на разных языках интерпретируются по-разному. В узбекском языкознании под ними понимаются лексические единицы, включающие в себя пословицы, афоризмы, словосочетания, идиомы, экзотики и ряд других единиц, тогда как в английском языкознании они рассматриваются как сочетания слов очень широкого уровня.*

***Ключевые слова:** устойчивые сочетания, религия, фразеология, фразеологизм, словосочетание, биномы, триномы, полиномы.*

### **ABSTRACT**

*Stable compounds are interpreted differently in different languages. In Uzbek linguistics, they are understood as lexical units, including proverbs, aphorisms, phrases, idioms, exotics and a number of other units, while in English linguistics they are considered as combinations of words of a very broad level.*

***Key words:** stable combinations, religion, phraseology, phraseological unit, phrase, binomials, trinomials, polynomials.*

### **KIRISH**

Barqaror birikma-sintaktik qurilma ko'rinishidagi ko'chma ma'noli lisoniy birlik.<sup>1</sup> Barqaror birikma tushunchasi ustida juda ko'p baxs-munozaralar mavjud bo'lib, dunyo lingvistlari bu borada qator mulohazalarni taqdim etadilar. Barqaror birikmalarga biz quyidagi leksik birliklarni misol keltirishimiz mumkin:

Binomiallar-har bir tilda uchrovchi bir semantik xususiyatga ega ikki leksik birliklarning birikmasidir (heaven and earth).<sup>2</sup> Binomiallar idiomatiklik (odds and

<sup>1</sup> Б.Менглиев. Хозирги ўзбек тили. Тошкент.-2020 й. 25-октябрь.-192 б.

<sup>2</sup> Y.Malkiel. 1959

ends) va madaniy o`ziga xosligi (Horut va Morut) tufayli tarjimada muammo tug`diruvchi birliklardir.<sup>3</sup> Binomiallar asosan semit tillarining diniy manbalarida uchraydi. Diniy binomiallar boshqa kollokatsiyalardan farqi ular idiomatik, alliterativ, madaniy turlarga bo`linadi. Diniy binomiallar tadqiqoti hali chuqur o`rganilmagan va bu borada Ibroniylar tilida arab binomiallarining qiyosiy tadqiqotiga asoslangan yagona tadqiqot mavjud.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Binomiallarni o`rganayotgan olimlar bunday konstruksiyalar uchun turli xil atamalardan foydalanganlar (Mollin, 2014). Tilshunoslar bir qator olimlar tomonidan qo`llanilgan binomial termini o`rnida boshqa terminlarni ishlastirishni ma`qul deb topadilar. Indiana universiteti lingvistlari Uilyam Kuper hamda Jon Robert Ross *freezes-qotishmalar* terminini, arab tilshunosi *conjoined lexical pairs*-yaxlit leksik juftliklar, T.Gorgis va Y. al-Tamimi *contrastive lexical couples*-chog`ishtirma leksik juftliklar, Piter Tiersma *qo`shma frazalar*, ayrim manbalarda *word pairs-juft so`zlar*, *doublets- ikkiliklar*, *Siamese twins-Siam egizaklari (keyinchalik conjoined twins-birlashgan egizaklar)* nomlari bilan ham atalgan.<sup>4</sup> Ammo, bu atamalarning hech biri Malkielning binomiallar borasidagi qarashlariga mos kelmaydi.

Yana boshqa bir olimlar barqaror birliklar sifatida quyidagi lingvistik hodisalarni ko`rsatib o`tadi. Ular: *idioms-idiomalar*, *gambits-*, *proverbs-maqollar*, *proverbial phrases-*, *catchphrases-*, *quotations-iqtiboslar* va *hokozo*.<sup>5</sup>

Barqaror birlik sifatida Monomial deganda biz birikmasi bo`lgan terminologik ifodani nazarda tutamiz.

o`zgaruvchan va doimiy terminologik birliklar hosil qiluvchi bir yoki bir nechta kombinatsiyalar / klasterlar, ajralmas birikma sifatida va bog`lovchilar bilan birlashib, atama hosil qilishi mumkin bo`lgan ifodalar.

Muayyan bilim sohasi talablariga muvofiq birikma sifatida *trinomial* termini ham qo`llaniladi. Trinomial idiomaning yana bir turi bo`lib, unda uchta so`z birgalikda bitta manoni anglatadi. Misol: *I've looked here, there and everywhere for my glasses but cannot find them. Men ko'zoynagimni bu yerdan, u yerdan va hamma joydan izladim, lekin uni hech qayerdan topa olmadim. "Vegasdagi bakalavrlar"* nomli kinoda *faint of heart* birligini trinomiallar sifatida keltirgan.<sup>6</sup>

*Collocation-kollokatsiya* termini etimologik jihatdan lotin tiliga tegishli bo`lib, *collocate-us*, *col (con)*-yonma-yon, birgalikda *locare*-joylashtirish ma`nosini

<sup>3</sup> A.Carvalho. 2008. Mollin, 2014

<sup>4</sup> Ghuzayyil Mohammed al Otaibi. Religious binomials in Hebrew and Arabic. Article. International Journal of Linguistics Literature & Translation . April 2021

<sup>5</sup> Richard J.Alexander. Fixed expressions in English: Reference book and the teacher.

<sup>6</sup> Hangover Movie.

bildiradi. Amerikalik tilshunos Zellig Xarris collocation-kollakatsiya terminini colligation termini bilan bog`laydi. *Colligation-kolligatsiya* bu- so`z birikmasi, grammatik so`zlarning jumalarda yonma-yon joylashuvidir. (Bartsch 2004: 65).

Kollokatsiyalarning birinchi nazariyasiga nisbatan har biri alohida ma`no anglatadigan turli so`z turkumlariga mansub ikki so`zning kombinatsiyasi deya ta`rif beriladi. Ikkinchi nazariyaga ko`ra kollokatsiyalarga grammatik vositalar yordamida birikkkan ikki leksik birlik sifatida ham yondashish mavjud. Masalan: *under consideration, finish+ing*. Uchinchi nazariya-kollokatsiyalar tarkibidagi har bir so`z o`zicha ma`no kasb etadi. Va ular kollokatsiyalar tarkibida cheklangan ma`noga ega bo`ladi. Masalan white-oq so`zi. *White paint*-oq kraska, *white coffee*-sutli qahva birikmalarida biz white so`zining eng birinchi ma`nosi qo`llanilayotganligini ko`ramiz. Ammo, *white horse*-pishqirgan to`lqinlar, *white coal*-energiya beruvchi ichimlik birliklarida har ikki so`z ham ko`chma ma`no anglatmoqda. Bu yerda ular idioma emas, metafora bo`lib kelayapdi.<sup>7</sup> Kollokatsiyalar va idiomalarni bir-biridan ajratib turuvchi jihat kollokatsiyalardagi har bir so`zning alohida ma`no kasb etishi hisoblansa, idiomalar tarkibidagi so`zlar birikmasi orqali ma`no anglashilishining imkonsizligidadir. Masalan: *river-rise* birligi kollokatsiyalarga misol bo`lsa *fly off the handle*-idiomatik birlikdir.

Ingliz tilidagi *It is raining cats and dogs* idiomasini olaylik. Ushbu idioma tarkibidagi rain-mustaqil ma`no anglatayapdi, ammo cats and dogs esa idiomatik ma`no kasb etmoqda. Shu jihatdan bu tuidagi idiomalar *partial or unilateral idioms* (qisman yoki bir tomonlama idiomalar) deb ataladi. Idiomalar barqaror birlik yoki erkin birlik sifatida shakllanadi.

## **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni qayd etishimiz lozimki, o`zbek lingvistikasidan farqli holda ingliz lingvistikasida diniy barqaror birikmalar keng doirada tadqiq etilgan, bu esa ikki til o`rtasidagi umumiylik va xususiylikni aniqlashda, o`zbek lingvistikasiga shu sohaga oid ayrim o`zlashmalarni qabul qilishni talab etadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)**

1. Б.Менглиев. Хозирги ўзбек тили. Тошкент.-2020 й. 25-октябрь.-192 б.
2. A.Carvalho. 2008. Mollin, 2014
3. Ghuzayyil Mohammed al Otaibi. Religious binomials in Hebrew and Arabic. Article. International Journal of Linguistics Literature & Translation . April 2021
4. Richard J.Alexander. Fixed expressions in English: Reference book and the teacher.

<sup>7</sup> Gramley and Pätzold 1992